

MANGOLD O‘SIMLIGINI BIOLOGIYASI, FOYDALI
XUSUSIYATI VA ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o‘g‘li

Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi

To‘xtasinova Rayxongul Avazbek qizi

Bekmirzayeva Gulxayo Mirzohodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari

Anotatsiya. Maqolada mangold o‘simligining kelib chiqishi, yashash sharoiti, tarqalishi, marfalogiyasi, anatomiyasi hamda shuni ham ta’kidlab o‘tishimiz kerakki dorivor o‘simlik bo‘lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e’tiborga ega o‘simliklar ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Mangold, sho‘radoshlar oilasi, meva, urug‘, barg.

Beta vulgaris subsp.vulgaris, sho‘radoshlar (*Chenopodiaceae*) oilasiga mansub, tarqalishi G‘arbiy Yevropa, AQSh, Yaponiya, Hindiston, Shimoliy Afrika, Rossiyada keng tarqalgan.

Biologiyasi. Mangold urug‘i +8+10°C da una boshlab, katta yoshdagi o‘simliklari +15+23°C va +30°C haroratda ham o‘sadi. Shuningdek, qisqa muddatli sovuqlarga bardosh beradi.

Ko‘paytirish usuli. Urug‘dan ko‘paytiriladi, xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi. Mangold o‘simligining bargi va barg bandi iste’mol qilinadi. Mangold o‘simligining birinchi terimgacha o‘suv davri 40-50 kun, barg uzunligi 23-25 sm, kengligi 16-17 sm, barg bandi uzunligi 27 sm. Mangold uzun poyali va bargli (30 sm gacha) bo‘lib, ismaloqqa o‘xshash. Barglarning rangi (oq, sariq, och va to‘q-yashil) bilan farq qiladigan ko‘plab navlar mavjud, barglar jingalak yoki silliq bo‘lishi mumkin. Hosildorligi 2-5 kg/m².

Mangold – ikki yillik o‘simlik bo‘lib, birinchi yili – barg, ikkinchi yili – 1,2-1,8 m balandlikdagi gulpoya chiqaradi. Bir tup o‘simlikdan 120-125 gr urug‘ berib, 1000 dona urug‘ vazni 20-22 gr. Urug‘lari 3-4 yil unuvchanligini saqlaydi.

Mangold barglari tarkibida vitamin K ko‘p, bundan tashqari C (30 mg %), V (1,43 mg %), E, K, PP, A va E vitaminlar, biotin, qand (3%), shuningdek, minerallardan Ca (102 mg), P (35 mg), Fe (3,9 mg), K, Na, Mn, Mg, Cu mavjud.

Mamlakatimiz oziq-ovqat sanoatida – bargi xomligicha hamda turli taomlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tabobatda – yallig‘lanishga qarshi, gemostatik va antioksidantlik xususiyatlarini hisobga olgan holda shamollash, qon ketish, ko‘z pardalarining yallig‘lanishi, kamqonlik va vitamin etishmovchiligini davolashda ishlatiladi. Shuningdek, qondagi

qand miqdorini tartibga soladi, bosh miyani faollashtiradi va ko'zni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, erkin radikallarning sog'lom hujayralarga ta'sirini kamaytirib, toksinlardan tozalaydi. Bu saraton hujayralari, immun tizimi va metabolik kasalliklar rivojlanishini oldini oladi.

Parvarishlash. Mangold urug'lari erta bahorda 10 fevraldan - 10 martgacha, takroriy muddatda 20 iyuldan - 10 avgustgacha to'g'ridan-to'g'ri ochiq dala ekiladi.

Urug'ni ekish aniq ekadigan seyalkalarda, qator oralarni 70 sm va qatordagi o'simliklar orasidagi masofani 10-15 sm qilib olib boriladi. Urug'ni quruq holda nam tuproqqa 1-1,5 sm chuqurlikka ekiladi.

O'simliklar orasi 8-10 sm, so'ngra 10-15 sm masofa qoldirib yagana qiladilar. Olib tashlangan o'simliklarni ovqatga ishlatiladi. Urug'lar unib, so'ng egatning oralari birinchi kultivatsiya qilinadi. Ikkinchi kultivatsiya ekin bir sug'orilgandan so'ng o'tkaziladi. Ya'ni, urug'lar unib chiqqandan keyin 1-1,5 hafta o'tkazib birinchi yalpi ishlov beriladi. Bunda qator oralari KRN-4,2 kultivator bilan 15-16 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinib, o'simlik atrofi yumshatiladi, mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi va suv beriladi. 20-25 kundan keyin yana bir marta yalpi ishlov beriladi.

Xulosa. Mangold usimligi tabobatda – yallig'lanishga qarshi, gemostatik va antioksidantlik xususiyatlarini hisobga olgan holda shamollash, qon ketish, ko'z pardalarining yallig'lanishi, kamqonlik va vitamin etishmovchiligini davolashda ishlatiladi. Shuningdek, qondagi qand miqdorini tartibga soladi, bosh miyani faollashtiradi va ko'zni mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI 2023-yil 23-24-b.

2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.

3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их ратсиональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интегратсионные протсессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.

4. Кимсанов И.Х, Кодиров О.А, Рахимов А.Д, Абдумаликов У.З. 6 . Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализатсии, Белгород, 2019. С. 24-27.